

концепции устойчивого развития в структурные подразделения предприятий или даже создание отдельных направлений по стратегии ESG.

### **Список использованной литературы:**

1. Ibragimova S., Xusainov R. «O 'ZBEKNEFTGAZ» AKSIYADORLIK JAMIYATIDA «ESG» STANDARTLARINI JORIY ETISH //MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT. – 2026. – Т. 4. – №. 1.
2. Ибрагимова С., Абдулазизов Ф. Развитие корпоративного управления в Узбекистане на основе современных мировых стандартов //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – Т. 3. – №. 1.
3. Ибрагимова С. ПЕРСПЕКТИВЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2022. – Т. 23. – №. 2. – С. 123-128.
4. Abdumuminovna I. S. The main ways to ensure the economic security of industrial enterprises in the digital economy //JournalNX. – 2023. – Т. 9. – №. 1. – С. 29-33.
5. Ibragimova S., Bakhodirova K. Formation of investment activities of energy enterprises //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 461. – С. 01074.
6. Abdumuminovna I. S. Management of innovative development socioeconomic systems //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 4. – С. 62-66.
7. Abdumuminovna I. S. Features of modern innovative development and formation of innovative system //Asian Journal of Research in Banking and Finance. – 2022. – Т. 12. – №. 3. – С. 14-1
8. Ибрагимова С. А., Хусаинов Р. Р. Глобаллашув жараёнида миллий иқтисодиётни инновацион ривожлантириш йўналишлари ва истиқболлари //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. 3 (139). – С. 62-67.
9. Ibragimova S. A., Shagaipova G. Z. MODERN PATTERNS OF DEVELOPMENT OF CORPORATE STRUCTURES IN UZBEKISTAN //Экономика и Финансы (Украина). – 2019. – №. 3. – С. 45-50.

## **GLOBAL MOLIYA BOZORIDA ESG TAMOYILLARI ASOSIDA YASHIL OBLIGATSIYALAR EMISSIYA HOLATI TAHLILI**

**Aliqulova Nilufar Bahodir qizi**  
TDIU, “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD

Global iqtisodiyotning so‘nggi o‘n yilliklarda kechayotgan strukturaviy o‘zgarishlari, xususan iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning tanqisligi va ekologik barqarorlikka doir xalqaro majburiyatlarning kuchayishi kapital bozorlarida yangi moliyaviy instrumentlarning shakllanishini nafaqat jadallashtirdi, balki ularning institutsional ahamiyatini sezilarli darajada oshirdi. Shu nuqtayi nazardan, qimmatli qog‘ozlar bozorida barqaror obligatsiyalar emissiyasi jarayonining takomillashuvi, an’anaviy obligatsiyalar va sukuklarning ekologik yo‘naltirilgan moliyalashtirish mexanizmlariga integratsiyasi hamda yashil moliyaviy vositalarning iqtisodiy tizimlarga chuqur kirib borayotgani global moliya arxitekturasi qayta shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunda xalqaro standartlar, tashabbuslar va reyting agentliklari tomonidan joriy etilgan “yashillik mezonlari” ushbu instrumentlarning shaffofligi, hisobdorligi va investitsion jozibadorligini oshirishda determinativ rol o‘ynaydi.


Bundan tashqari, so‘nggi yillarda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning emissiya faoliyatida kuzatilayotgan izchil o‘sish dinamikasi, xususan,

Yevropa Ittifoqi, AQSh, Xitoy, Malayziya, Indoneziya va Yaqin Sharq davlatlarining yirik hajmdagi yashil obligatsiyalar va yashil sukuk emissiyalarini amalga oshirgani transmilliy kapital oqimlarining ekologik loyihalarga yo'naltirilayotganini yaqqol tasdiqlaydi. Shariat tamoyillariga asoslangan sukuk instrumentlarining barqaror moliya tizimiga moslashuvi, ularning ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni birlashtirgan holda yangi investitsion segment yaratishi barqaror moliyalashtirish bozorida sezilarli diversifikatsiya va risklarni boshqarish imkoniyatlarini shakllantirmoqda. Natijada, yashil obligatsiyalarni rivojlantirishning moliyaviy mexanizmlari kapital bozorlarining samaradorligini oshirish, ekologik investitsiyalarni institutsional qo'llab-quvvatlash va global uglerod neytralligi maqsadlariga erishishni tezlashtirishda strategik ahamiyat kasb etuvchi kompleks iqtisodiy yo'nalishga aylanib bormoqda.

Shu bilan birga, global moliya tizimida innovatsion texnologiyalarning, xususan raqamli moliya platformalari, blokcheyn asosidagi kuzatuv mexanizmlari hamda ijtimoiy-muhit ko'rsatkichlarini baholaydigan ESG-reyting tizimlarining jadal rivojlanishi yashil obligatsiyalar bozorining institutsional samaradorligini oshirishda muhim akselerator vazifasini bajarmoqda. Bu jarayon nafaqat emissiya jarayonining shaffofligini ta'minlaydi, balki investorlarga real vaqt rejimida ekologik natijadorlik bo'yicha aniq ma'lumotlar olish imkonini yaratib, bozor ishonchliligini mustahkamlaydi va barqaror moliya sektorining uzoq muddatli o'sish potensialini kuchaytiradi. Natijada, yashil obligatsiyalar va yashil sukuklar bozorining kengayishi global moliyaviy ekotizimning transformatsion rivojlanishini belgilovchi asosiy yo'nalishlardan biriga aylanib, davlatlar, korporatsiyalar va institutsional investorlar uchun yangi strategik imkoniyatlar ochmoqda.

Global kapital bozorlarida kuzatilayotgan tendensiyalar yashil moliyalashtirish mexanizmlarining real iqtisodiy sektorga kirib borish darajasi turli mamlakatlarda sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy rivojlanish sur'atlari, moliyaviy bozorlarning chuqurlashuvi, suveren kredit reytinglari va investitsion muhit muvozanatiga bog'liq holda shakllanayotgan hududiy tafovutlar mavjudligini anglatadi. Rivojlangan mamlakatlarda xususiy sektor tomonidan boshqariladigan emissiyalar ustunlik qilayotgan bo'lsa, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda davlat sektori va xalqaro moliyaviy institutlarning ishtiroki barqaror moliyalashtirishning asosiy tayanchiga aylanmoqda. Ushbu omillar birgalikda bozordagi taqsimlanish mexanizmlarini, emissiya samaradorligini va yashil obligatsiyalar bozorining moliyaviy barqarorlikka qo'shayotgan hissasini yaxlit baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

Global barqaror obligatsiyalar bozorining emitentlar kesimidagi strukturasi chuqur iqtisodiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, davlat ishtirokidagi tashkilotlar 129 mlrd dollarlik yashil, 21 mlrd dollarlik barqaror, 100 mlrd dollarlik ijtimoiy obligatsiyalar chiqarib, umumiy hisobda eng yirik segmentni shakllantirgan bo'lib, bu davlat sektorining ekologik va ijtimoiy infratuzilmani moliyalashtirishdagi strategik roli hamda kapital bozorida yuqori ishonchlilik darajasini tasdiqlaydi. Moliya sektori bo'lmagan korporativ emitentlar tomonidan 203 mlrd dollarlik yashil, 26 mlrd dollarlik barqaror, 5 mlrd dollarlik ijtimoiy va 7 mlrd dollarlik barqarorlik bilan bog'liq obligatsiyalar chiqarilgani xususiy sektorning iqlim o'zgarishiga moslashuv, energiya samaradorligi va korporativ uglerod izini qisqartirishga yo'naltirilgan investitsion tashabbuslari keskin faollashganini ko'rsatadi.



**1-rasm. Emitent turi va toifasi bo'yicha global barqaror obligatsiyalar chiqarilishi (milliard dollar)<sup>27</sup>**

Shu bilan birga, moliya korporativlari 142 mlrd dollarlik yashil, 33 mlrd dollarlik barqaror, 28 mlrd dollarlik ijtimoiy obligatsiyalar emissiyasi bilan moliyaviy institutlar ESG tamoyillarini kredit portfeli risklarini baholash tizimi, aktivlar sifati va kapital yetarliligiga doir ichki standartlarga faol integratsiya qilayotganini namoyish etmoqda. Suveren obligatsiya emitentlari esa 134 mlrd dollarlik yashil, 25 mlrd dollarlik barqaror va 8 mlrd dollarlik ijtimoiy obligatsiyalar chiqarib, davlatlarning milliy “yashil iqtisodiyot” strategiyalarini xalqaro moliyaviy oqimlar orqali qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlarining samarali ishlayotganini anglatadi.

Bundan tashqari, taraqqiyot banklari tomonidan 52 mlrd dollarlik yashil, 86 mlrd dollarlik barqaror va 16 mlrd dollarlik ijtimoiy obligatsiyalar emissiyasi amalga oshirilgani ushbu institutlarning inklyuziv o'sish, pandemiyadan keyingi tiklanish, ijtimoiy infratuzilma va kambag'allikni qisqartirish kabi ustuvor yo'nalishlarni moliyalashtirishda global miqyosdagi o'rnini kuchaytiradi. Mahalliy boshqaruv organlarining nisbatan past ko'rsatkichlarga ega bo'lishiga qaramay (13 mlrd dollar yashil, 15 mlrd dollar barqaror, 9 mlrd dollar ijtimoiy obligatsiyalar), ularning faoliyati urbanizatsiya jarayonidagi ekologik loyihalar – chiqindilarni boshqarish, jamoat transportini modernizatsiya qilish, “yashil shahar” konsepsiyasini moliyalashtirish kabi maqsadlar bo'yicha aniq, lokal miqyosdagi barqarorlik tashabbuslarini kuchaytirayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, keltirilgan global barqaror obligatsiyalar bozorida yashil obligatsiyalar eng katta ulush (eng yirik segmentlar bo'yicha 129–203 mlrd dollargacha)ni egallayotganini, barqaror va ijtimoiy obligatsiyalar esa emitent turiga qarab farqlanuvchi, ammo ortib boruvchi talabga ega bo'lgan moliyaviy instrument sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Ushbu diversifikatsiya barqaror moliya tizimining institutsional kengayishi, kapital bozori orqali ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya jarayonlarini moliyalashtirish samaradorligining oshishi hamda global ESG kun tartibining moliyaviy instrumentlarga tobora chuqur singib borayotganini tasdiqlaydi.

<sup>27</sup> World Investment Report 2025. Sustainable finance trends. – P. 132.